



THE ISSUE OF PERSONNEL IN THE FIELD OF ANTHROPOLOGY IN UZBEKISTAN

Amaliddin Nurboevich Sulaymanov

Candidate of Historical Sciences

Associate Professor of the "History" Department

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, personnel issues, anthropology, ethnography, expedition, National University of Uzbekistan, Tashkent State University of Oriental Studies, Institute of History, research.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: The article examines the emergence and development of anthropology in Uzbekistan, personnel issues at different stages of the history of Uzbekistan, conducted scientific research and expeditions, as well as their place in our history.

O'ZBEKİSTONDA ANTROPOLOGİYA SOHASIDA KADRLAR MASALASI

Amaliddin Nurboevich Sulaymanov

"Tarix" kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, kadrlar masalasi, antropologiya, etnografiya, ekspeditsiya, O'zMU, TDSHU, Tarix instituti, tadqiqotlar.

Annotatsiya: Maqlada O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi, shakllanishi, O'zbekiston tarixining turli bosqichlarida kadrlar masalasi va amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar va ekspeditsiyalar, ularning tariximizdagi o'rni haqida so'z boradi.

ПРОБЛЕМА КАДРОВ В ОБЛАСТИ АНТРОПОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Амалиддин Нурбоевич Сулейманов

Доцент кафедры «История», Кандидат исторических наук

Гулистанская государственная система

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Узбекистан, кадровые вопросы, антропология, этнография, экспедиция, Национальный университет Узбекистана, Ташкентский государственный востоковедения, Институт истории, исследование.	Аннотация:	В статье рассматривается возникновение и становление антропологии в Узбекистане, кадровые вопросы на разных этапах истории Узбекистана, проведенные научные исследования и экспедиции а также их место в нашей истории.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. O‘zbekistonda antropologiya fanining asoslarini yaratilishi va sohani kadrlar bilan ta’minlash masalasi tubdan farq qiladigan tarixiy davrlarda amalga oshdi. Shuning uchun ham bu masalani ilmiy asosda yoritib berish maqsadida uni 3 ta, imperiya davri, sovetlar davri va mustaqillik davriga bo‘lib o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Imperiya davri. Shuni ta’kidlash kerakki, XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida ko‘plab soha olimlarining diqqatini Turkiston o‘lkasida istiqomat qilayotgan o‘zbeklar va boshqa xalqlarning antropologiyasi va etnik tarixi masalalari o‘ziga tortar edi. Shu sababli turli yillarda rus va boshqa olimlar tomonidan mintaqa xalqlarining antropologiyasini tadqiq qilishga qiziqish ortib boradi. Shunday ekspeditsiyalardan A.P.Bogdanovning 1887-1888-yillardagi[1], Uyfalvning Turkiston o‘lkasi xalqlari madaniyati, urf-odatlari va kundalik hayoti to‘g‘risidagi 1878-yilgi[2], A.Xaruzinining 1889-yilgi Turkiston xalqlari etnografiyasiga oid tadqiqotlari[3], I.L.Yavorskoyning 1895-yildagi O‘rta Osiyo mintaqasiga qilgan xizmat safarlari davomida to‘plagan etnografik ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan tadqiqot xulosalari[4], V.E.Peyselning 1897-yildagi taranchilar hayotiga oid bo‘lgan ilmiy ishlari[5], S.Maslovskiyning 1901-yildagi Turkistonda yashovchi xalqlar va ularning turmush tarzi, urf-odatlariga oid tadqiqotlari[6] va A.A.Ivanovskiyning 1903- va 1904-yillarda uyuştirган ekspeditsiyalarini misol qilib keltirish mumkin.

XIX-asr tadqiqotchilaridan A.P.Shishov, I.A.Yavorskiy, S.Vaysenberg, V.E.Paysel[7] larning ilmiy izlanishlari natijalari bu jarayonga boshqa olimlarning kirib kelishiga keng yo‘l ochib berdi. XX-asr boshlariga kelib, mintaqa xalqlari antropologiyasi va etnik tarixiga oid tadqiqotlar V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, P.P.Ivanov, V.D.Tronov, V.A.Blagoveshchenskiy, N.L.Zeland[8] va boshqa olimlar tomonidan davom ettiriladi. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu antropologik tadqiqotlar natijalaridan bugungi kunda solishtirish, taqqoslash maqsadlarida foydalanish mumkin. Ammo diqqatga sazovor joyi shundaki, ushbu tadqiqot natijalari bugungi kunda ham o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.

Sovetlar davri. Inqilobdan keyingi dastlabki yillarda irqiy va etnik antropologiya sohasidagi tadqiqotlarni tizimli ravishda olib borishga bir qator harakatlar olib borildi. Materiallarning jadal,

izchil to‘planishi, zamonaviy xalqlarning ko‘plab antropologik turlari tasvirlangan, suyak qoldiqlarini o‘rganish asosida qadimgi qabilalar va turli arxeologik madaniyatlarga mansub xalqlarning antropologik tarkibi tiklana boshlandi.

Bu boradagi tadqiqotlar 1918-yillarga kelib qayta tiklanishiga va asta-sekinlik bilan O‘zbekistonda antropologiya sohasining asoslarini yaratilishiga, sohani kadrlar bilan ta’minlashga e’tibor berishga olib keladi.

Natijalar va muhokama. Turkistonda, jumladan O‘zbekistonda antropologiya sohasining asoslarini yaratilishi va kadrlar bilan ta’minlash ishlari bevosita L.V.Oshanin bilan bog‘liq. L.V.Oshaninning pedagogik va ilmiy faoliyatining boshlanishi 1918-yilning qishi va 1919-yillarga to‘g‘ri keladi. O‘shanda u o‘zining boshqa shifokor do‘satlari (I.I.Orlov, G.N.Broverman, M.I.Slonim, A.D.Grekov) bilan Toshkent shahrida O‘lka oliv tibbiyot maktabini tashkil etishadi va bu muassasada pedagog sifatida ish boshlaydi. Lev Vasilevich “Turkiston tibbiyot jamiyat”ni tashkil qilishda ham ishtirok etadi. XX-asrning 20-yillarining boshidan o‘z faoliyatini to‘liq antropologiyaga bag‘ishlaydi. O‘sha davrda Toshkentda biron bir antropologik muassasa yoki ekspeditsiyalarning mavjud bo‘lmaganligi sababli u, 1923-yil yozida Sog‘liqni saqlash xalq komissarligining tibbiy-ko‘rik otryadida shifokor sifatida, Xorazmga, so‘ngra Markaziy Tyan-Shanga ilmiy safarini uyuştiradi. Otryadda u shifokorlik vazifasini bajarish bilan bir paytda, antropologik materiallar to‘plash bilan shug‘ullanadi. Ushbu materiallar asosida L.V.Oshaninning Xorazm o‘zbeklari, Issiq-ko‘l qirg‘izlari to‘g‘risidagi birinchi ilmiy ishlari chop etiladi. 1926-1928-yillarda turkmanlarning skif-sarmatlardan kelib chiqishi to‘g‘risidagi ilmiy farazlarini ilgari suradi. O‘zbeklarning irqiy tipini uzoq yillar davomida tadqiq qilgan xolda u, o‘zbeklar Xorazm va Movarannaxrning qadimgi aholisining avlodlari hisoblanishadi degan fikrga keladi. Shunday qilib, uning antropologiya fani sohasidagi faoliyatining boshlanish davri 1920-1921-yillarga to‘g‘ri keladi deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Xuddi shu davrdan boshlab u o‘zining ilmiy va pedagogik faoliyatini Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixini o‘rganishga bag‘ishlaydi. 1925-yildan boshlab, Sharq va tibbiyot fakultetlarida talabalarga antropologiya bo‘yicha ma’ruzalar o‘qishni boshlaydi.

XX-asrning 20-yillarida O‘zbekiston antropologlari mintaqaning Xorazm va Markaziy Tyan-Shan hududlariga dastlabki ilmiy ekspeditsiyasini tashkil qilishadi[9]. Ekspeditsiya natijalari asosida Xorazm vohasi o‘zbeklari va Issiqko‘l atrofi qirg‘izlarining antropologiyasiga oid ilmiy materiallar paydo bo‘ladi[10]. Dastlabki boshlangan ilmiy tadqiqotlar asta-sekinlik bilan mintaqaning boshqa hududlarini qamrab ola boshladi. O‘zbekiston antropolog-olimlari qisqa fursat ichida Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida yashovchi o‘zbek, tojik, yahudiy va arablarni o‘rganishadi va soha uchun qimmatli materiallarga ega bo‘lishadi[11].

Shunga ko‘ra, XX-asrning birinchi yarmida O‘zbekistonda antropologiya fani vujudga keldi deyishga asos bor. O‘tgan asrning 20-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab, O‘rta Osiyo davlat universitetining “Biologiya” kafedrasи mintaqasi xalqlari antropologiyasi va etnik tarixini o‘rganuvchi ilmiy maskan rolini o‘ynay boshlaydi. O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik, tibbiyat fakultetlari talabalariga antropologiya fanidan ma’ruzalarning o‘qishni boshlanishi, talaba-yoshlarning bu sohaga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga xizmat qiladi. Antropologiyaning rivojlanib borishi, talabalarning mintaqaning turli hududlari bo‘ylab ekspeditsiyalarga chiqishlari, boy materiallarning qo‘lga kiritilishi, o‘scha davr antropologik tadqiqotlar usullarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

XX-asrning 20-30-yillarida O‘zbekiston antropolog olimlari tomonidan turli ekspeditsiyalar tashkil qilinadi va ushbu dala tadqiqot natijalari ilmiy jihatdan tadqiq etilib, chop etila boshlanadi. Shu davr oralig‘ida antropologlarning Qashqadaryo viloyatiga, Turkmanistonga, Pomirga, Yag‘nobga uyushtirgan ekspeditsiyalarida mintaqada muqim yashayotgan turli xalq va elatlarga oid boy materiallar to‘planadi.

Antropologik va etnogenetik tadqiqotlarning pozitsion qoidalari va usullari 1942-yil Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo butunitifoq sessiyasida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining etnogenezi masalalarini umumlashtirish davomida aniqlashtiriladi[12]. Unda keng qamrovli yangi materiallar, yondashuvlar va muammolar muhokama qilindi.

XX-asrning 50-60-yillarida O‘zbekiston antropologlari mintaqasi xalqlari antropologiyasi va etnik tarixi bo‘yicha umumlashgan tadqiqotlar yaratish bo‘yicha faoliyat olib borishadi. V.Ya.Zezenkovning “O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezi masalalari antropologik ma’lumotlar asosida” nomli maqolalar to‘plami chop etiladi[13]. L.V.Oshanin tadqiqot natijalarini to‘plab, uch jidda chop ettiradi[14].

O‘tgan asrning 40-yillaridan boshlab to 80-yillarigacha V.Ya.Zezenkova, T.P.Kiyatkina, A.Pulyanos, K.Nadjimov, I.Guseva, T.K.Xodjayov, G.Xodjayova, X.Xalilov, S.Mustafakulov kabi ko‘plab tadqiqotchi-olimlar o‘zlarining keyingi hayotini mintaqasi xalqlari antropologiyasi va etnik tarixini o‘rganishga bag‘ishlashdi.

Natijada bu davr ichida olimlarning mintaqasi xalqlari xususan o‘zbeklarning etnogenezi muammosi arxeologik, antropologik va tarixiy ma’lumotlar bilan to‘ldirishlariga xizmat qiladi. Samarqandda Amir Temur va Temuriylar xokini o‘rganish[15], G‘arbiy Pomir eron qabilalari[16], Surxondaryo viloyati aholisining antropologiyasi[17], Talas, Ettisuv, Qoraqalpog‘iston, Nurota, Farg‘ona va boshqa hududlar[18] aholisi antropologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar O‘zbekistonda antropologiya fanining muhim izlanishlari hisoblanadi.

Tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiyalar mintaqaning turli hududlaridan deyarli barcha xronologik davrlarga oid muhim antropologik qazilma ashyolarni qo‘lga kiritish imkonini beradi.

Janubiy Turkmaniston, G‘arbiy va Markaziy Farg‘ona, Toshkent vohasi, Zarafshon vodiysi (Samarqand va Buxoro viloyatlari)dagi o‘rta asrlarga oid qator materiallar o‘rganiladi[19]. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida antropologiya fanidan umumiy va maxsus kurslar o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Talaba yoshlarga biologiyadan tashqari arxeologiya, etnografiya va tilshunoslik fanlaridan maxsus kurslar joriy qilindi. Talabalar dala tadqiqot ishlariga jalb qilinib, O‘zbekistonda antropologiya fanining rivojiga salmoqli hissa qo‘shiladi. O‘zbekistonda antropologiya fanining o‘tgan asrning 70-80-yillardagi rivoji turli yillarda shu sohada tahsil olib, endilikda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarix va arxeologiya institutida, boshqa qismi esa Arxeologiya institutida, mamlakatning turli oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida “ustoz-shogird” an’analarida faoliyat olib borayotgan soha olimlari tomonidan davom ettiriladi. V.Ya.Zezenkova, mintaqaning qadimgi va o‘rta asrlar aholisining antropologiyasi bo‘yicha, T.P.Kiyatkina Tojikiston va Turkmaniston qadimgi aholisining antropologiyasi[20], A.N.Pulyanos Gretsiya aholisi antropologiyasi[21] bo‘yicha o‘zlarining bir qator monografiyalarini chop etishadi. I.S.Guseva Sharqiy Evropa xalqlari dermatoglifikasi bo‘yicha ishlarini olib borgan[22]. T.K.Xodjayov o‘tgan asrning 60-yillardan boshlab 2000-yillar boshigacha mintaqaning qadimgi va hozirgi aholisi antropologiyasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarni olib boradi. G.K.Xodjayova O‘zbekiston aholisi dermatoglifikasi, odontologiyasi va serologiyasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlarni amalga oshiradi. S.I.Mustafaqulov, “So‘g‘d aholisida antropologik jihatlarining shakllanishi” mavzusida tadqiqotlarini davom ettiradi.

XX-asrning 80-yillaridan boshlab antropolog olimlar tomonidan axolining fiziologik tuzilishiga oid bo‘lgan tadqiqotlari salmog‘i oshadi. O‘zbekistonda uzoq vaqt davomida bir guruh olimlar (A.A.Asqarov, B.A.Ahmedov, Yu.F.Buryakov, G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze, K.Sh.Shoniyozov, T.K.Xodjayov) sohada muvaffaqiyatli mehnat qilib kelishadi[23].

Mustaqillik davri. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlarni sohaga oid qiziqishlari har tomonlama qo‘llab quvvatlanadi. Sohaning A.Askarov, B.Axmedov, T.K.Xodjayov, K.Sh.Shoniyozov, I.Jabborov, G.K.Xodjayova, A.Xo‘jaev kabi ko‘plab mutaxassis-olim va tadqiqotchilari 2000-yillar va undan keyingi davrda O‘zbekistonning qator oliy ta’lim muassasalarida ilmiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishib, yoshlarga “Antropologiya asoslari”, “O‘rta Osiyo etnogenezi va etnik tarixi”, “Fiziologik antropologiya”, “O‘rta Osiyo antropologiyasi”, “Turkiy tilli xalqlar etnogenezi va etnik tarixi”, “Antropologik tadqiqotlar metodikasi” “Vezual antropologiya”, “Madaniy antropologiya”, “Tarixiy antropologiya”, “Ijtimoiy antropologiya”, “Etnografiya” kabi kurslardan ma’ruzalar o‘qib kelishadi.

Mustaqillik yillarida ustoz-shogird an’analarini davom ettirgan holda, olim va tadqiqotchilardan A.X.Doniyorov (TDShU), A.Ashirov (O‘zFA Tarix instituti), Z.Arifxonova (O‘zFA Tarix instituti), G.Zununova (O‘zFA Tarix instituti), M.M.Askarov (TDShU), V.E.Abirov

(TDSHU), A.Bobobekov (O'zMU), A.Sulaymanov (GulDU) va boshqalar talaba-yoshlarga O'zbekistonda mintaqqa aholisining antropologiyasi va etnik tarixini o'rGANISHLARI, bu boradagi bilimlarini mustahkamlash, antropologiya va etnik tarix sohasida etuk mutaxassislar tayyorlash maqsadida Respublikamizning etakchi oliy ta'lif muassasalarida yoshlarga saboq berib kelishmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda mintaqqa xalqlari, birinchi galda o'zbek xalqi antropologiyasi va etnik tarixi, amalga oshirilgan antropologik tadqiqotlar tarixshunosligini ilmiy jihatdan o'rGANISH, tadqiq qilish ishlari qator OTM va ITILARI tomonidan davom ettirib kelinmoqda. Bu borada Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasining faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Kafedrada "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi", "Markazi Osiyo xalqlari tarixi va tarixshunosligi", "Markazi Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi" kabi kafedralar tashkil topadi va faoliyatlarini davom ettiradi. Bugungi kunda ushbu kafedralarda etuk mutaxassislar, Sharq mamlakatlari, Markazi Osiyo xalqlari tarixi, tarixshunosligi, etnik va antropologik tarixi kabi sohaning yirik olimlari va tadqiqotchilari o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishib, O'zbekistonda sharqshunos-tarixchilar, etnografiya, antropologiya fanlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi yagona ilmiy muassasa sifatida jahonda o'z o'rniga ega bo'lmoqda. O'zbekistonda mintaqqa xalqlari etnik tarixi va antropologiyasiga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borayotgan ilm maskanlaridan biri, O'zbekiston milliy universiteti qoshida uzoq yillardan buyon faoliyat olib borayotgan "Antropologiya va etnologiya" kafedrasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-fevraldag'i 14-07/1-3796-sonli topshirig'iga binoan "Millatlararo munosabatlar sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majorali va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktikasi holati monitoringini tizimli tashkil etish bo'yicha 2020-2021-yillarga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar rejasii"ning 8-bandiga muvofiq, kafedra "Antropologiya va etnologiya" nomi bilan yangidan tashkil etiladi.

Bugungi kunda "Antropologiya va etnologiya" kafedrasи O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti "Etnologiya va antropologiya" markazi, O'zMU qoshidagi "Amaliy etnologiya" laboratoriysi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Kafedra a'zolari qator darsliklar, ilmiy monografiyalar ustida ish olib borishmoqda.

O'zbekistonda antropologiya fanini rivojlanishida va sohaga ilmiy kadrlar etishtirib berishda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Tarix instituti salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Jumladan Fanlar akademiyasi huzurida 1943-yilda "Etnografiya" bo'limi tashkil etiladi. Bo'lim bir muddatdan so'ng, "O'zbek xalqi etnografiyasi" va "Etnogenetika va etnik tarix" nomlari bilan faoliyat olib boradi. 2020-yil 8-iyundan boshlab "Etnologiya va antropologiya" markazi sifatida faoliyat yuritilishi yo'lga qo'yiladi. Markazga turli yillarda soha olimlari

M.S.Andreev, O.A.Suxareva, K.Shoniyozov, Z.H.Arifxonova, G.Sh.Zununovalar rahbarlik qilishgan. Xozirda markazni t.f.d., prof A.Ashirov boshqarib kelmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda antropologiya fanining rivoji bir tekisda kechmagan. Iperiya davrida, Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida amalga oshirilgan ekspeditsiyalar, asosan rossiyalik olim va sayohatchilar tomonidan tashkil etilgan. Bu sayyohatlarda mintaqqa xalqlarini etnik tarixi va antropologiyasini o'rganish asosan tasviriy axborot komponentlaridan foydalanish orqali amalga oshirilgan.

Mustaqillik davrida soha bo'yicha salmoqli va boy ilmiy meros, qimmatli antropologik tarixiy manbaalarni yaratildi. Bu davr ichida fan sohasida ko'plab olimlar, tadqiqotchilar tarbiyalanib voyaga etkazildi. Yangi O'zbekistonda ustoz-shogird an'analarida faoliyat davom ettirilib, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishiga munosib hissa qo'shish yo'lida barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.А.Аскаров. Раскопки могильника эпохи бронзы в Муминабаде // ИМКУ. Вып.8. – Т.: Фан, 1969. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси – “Нур”, 1992.
2. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. – Т.: Фан, 1975.
3. Пугаченкова Г.А. Древности Мианкаля. Из работ Узбекистанской искусствоведческой экспедиции. Ташкент: «Фан». 1989.
4. Ртвеладзе Э. Respice post te, или Академик Массон и другие // Восток Свыше. XXVI. 2012. Ташкент.
5. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент, 2001. Шарқ нашриёти.
6. Ходжайов Т.К. Краткие итоги изучения антропологии Средней Азии в связи с проблемами этногенеза узбекского народа // Материалы по этнической истории населения Средней Азии. – Т.: Фан, 1986.
7. Богданов А.П. Московская антропологическая выставка 1879 г. Т. 3, ч. 2. Описание предметов выставки. Вып. 3. Отдел краниологии / Сообщ. А. П. Богдановым. - М., 1879. - 28 с. (Известия Имп. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. 35, ч. 2, вып. 3).
8. Гусева И.С. Морфогенез и генетика гребешковой кожи человека. – Минск, 1986. – 158 с.
9. Кияткина Т.П. Материалы к палеоантропологии Таджикистана. – Душанбе: Дониш, 1976. – С.21-23.

10. Керимова М.М. Жизнь, отданная науке. Семья этнографов Харузиних. Из истории российской этнографии (1880-1930-е годы) / Керимова М.М. – М.: “Восточная литература”. 2011. 760 с. С. 120-126.
11. Кормилицын А.И. Экспедиции кафедры антропологии Биолого-почвенного факультета ТашГУ за 1923-1959 годы // Труды ТашГУ. – Т., 1964. – С.22.
12. Масловский С. Гальча (Первобытоное население Туркестана) // Русский антропологический журнал. 1901, № 2.
13. Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области // Труды ТашГУ. Вып. 143. – Т., 1958. – С. 27-31.
14. Ошанин Л.В. Киргизы южного побережья Иссык-Куля. // В.В.Бартольду Туркестанские друзья, ученики и почитатели. Общество изучения Таджикистана и иранских народностей за его пределами. – Т., 1927. Бюллетень САГУ. - №16. – С. 233-270.
15. Ошанин Л.В. Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез её народов в свете данных антропологии. Т.: Изд-во АН УзССР, 1953. – С.61-74.
16. Ошанин Л.В. Антропологическое исследование скелетов Тимура и Тимуридов // Археология и антропология. Труды ТашГУ. Вып. 232. – Т., 1964. – С.34-39.
17. Ошанин Л.В. Иранские племена западного Памира. – Т., 1937.
18. Пайсель. В.Э. Материалы для антропологии таранчей. Диссертация на степень доктора медицины. Санкт-Петербург. 1897.
19. Пулянос А.Н. «Обнаружение палеолитического человеческого черепа в Греции». Вопросы Антропологии, Москва. 1961. №8. 162 с.
20. Ujfalvy Ch.E. Expedition scientifique francale en Russie, en Siberie et dans le Turkestan. Paris, Ernest Leroux, editeur, 1879a, vol. 2: Le Syr-Daria, le Zerafchan et le pays des Sept-Rivieres de la Siberie, 301 p.
21. Яворской. И.Л. Краткий отчёт о научной командировке в Среднюю Азию, исполненной летом 1894 года. - Т. 13. - Одесса, 1895.
22. Зезенкова В.Я. Материалы к этногенезу народов Средней Азии // Материалы сессии, посвященной итогам полевых исследований 1967 года. – М., 1968. С.66-69.
23. Зезенкова В.Я. К вопросу об антропологическом типе туркмен Самаркандской и Бухарской областей // Бюллетень САГУ. – 1945. - №4. – С. 18-20.